

ZAMONAVIY TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY QADIRYATLARDAN TA'LIM VA TARBIYANING SAMARALI OMILIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Xasanova Salomat Qo'chqarovna.
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'limdi zamon talabi darajasida isloq qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko'tarish muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko'rsatib berilgan hamda oliy o'quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

KIRISH

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'limga yo'sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan yoshlar ana shunday o'zgarishlarga ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'mini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta'limga tizimida boy tajribalar yig'ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va hakozo.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'limga tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limga tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ2707-sonli, "Maktabgacha ta'limga tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-

3261-son qarorlari, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2017- yil 30- sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.

Maktabgacha ta’lim sohasi uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo’nalishlari darajasiga ko’tarildi. Biroq o’tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko’rsatmoqda.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi.

Ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo’g’ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal o’zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo’lmoqda: maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo’jalik faoliyatining yangi turlariga o’tmoqda; nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’i kengaymoqda; ta’limning ilg’or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlarning malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. O’zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari zamonaviy tizimi quyidagi jadvalda o’z aksini topgan.

Xulosa o’rnida shuni qayd etish lozimki, texnologik yondashuv asosida ta’limni tashkil etish ijobiy natijalarini beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

- “Zamonaviy ta’lim usullari” deganda maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlarini o’rganish bo’yicha tarbiyalanuvchilarning oldiga qo’yilgan pedagogik muammoni mustaqil yechishga xizmat qiadigan interfaol metodlar ko’zda tutiladi.
- Adabiy ta’lim samaradorligiga erishishning eng maqbul yo’li – bu maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fan mashg’ulotlarini o’qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash sanaladi.
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlari zamonaviy tashkil etilsa, tarbiyalanuvchilarda samarali muloqot va o’z fikrini to’g’ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko’nikmalari rivojlanadi.

4. Ta'lim samaradorligi tarbiyachilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga bog'liq.
 5. Zamonaviy usullar tarbilanuvchilarni faollashtiradi, ular o'zaro bahs-munozara asnosida kichik hikoyalarning mohiyatini teranroq anglaydilar.
 6. Tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda mashg'ulotlar uyuştirilsa, kichik guruhlar tashkil etilsa, topshiriqlar alohida tarbiyalanuvchiga emas, balki kichik guruhlarga berilsa, bolalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish zarurati va ko'nikmasi yuzaga keladi.
1. Maktabgacha ta'lim tashkiioti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasiga amaliy-uslubiy jihatdan e'tibor qaratish va pedagogik tarbiyachilarining kompetentsiyaviy yondashuv asosida faoliyat olib borish imkoniyatlari qamrovini kengaytirishga xizmat qilishi lozim.
 2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini interfaol usullarda o'qitishni tashkil etishdan oldin joylarda tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini maqsadli va samarali tashkil etishga mo'ljallangan maxsus o'quv seminarlari o'tkazish lozim.
 3. Pedagog-tarbiyachilarini maktabgacha yoshdagি bolalarni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish maqsadida "Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish texnologiyalari" nomli metodik qo'llanma yaratish.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Abdullayeva N. Maktabgacha ta'limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. nom... diss. -T.: 2020. – 164 b.
3. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. –М.: «Арена», 1994.
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. "Maktabgacha yoshdagи bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi", O'quv-metodik qo'llanma, -T.: 2004.
5. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий. Монография, г. Волгоград «Перемена» 2006.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. 2000-y.
7. O'zbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining buyrug'i. 2018- yil 18 –iyun.